



MAHALLADAGI IQTIDORLI VA ISTE`DODLI YOSHLAR BILAN TIZIMLI ISHLASH MASALALARI

Latipov.B.U

*G`ijduvon tuman Fayzulla Xo`jayev
mahalla yoshlar yetakchisi*

Annotatsiya: *Yangi O`zbekistonda yangilanayotgan islohotlar davrida yoshlarimizning o`rni va ahamiyati juda yuqori chunki davlatimizning 60% ga yaqin qismini yoshlar tashkil etayotgan davrda, islohotlarni amalga oshiruvchi asosiy kuch bu yoshlar hisoblanadi. Iqtidori va iste`dodi bor yoshlar yurtimiz ravnaqi, rivoji va yuksalishida o`z hissalarini qo`sha oladi.*

Endigi ishlar aynan shunday iqtidori va iste`dodi bor yoshlarni izlash, aniqlash, ular bilan samarali ishlash uchun Yoshlar ishalari agentligi tashkiloti tashkil etilishi va ushbu tashkilot tashabbusi Prezidentimizning qo`llab – quvvatlash va yuksak ishonchlari bilan 2022–yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to`g`risidagi 92-son qarorlari bilan respublikamizning barcha hududlaridagi mahallalarida yoshlar yetakchi lavozimi joriy qilindi. Endigi bu lavozim egalarining vazifasi yuqorida takidlab o`tilgan mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash va iqtidorli va istedodli yoshlarni aniqlab, ularni yuzga chiqarish hisoblanadi.

Hozirda yoshlarning aksaryati bo`sh vaqti bekorchilikda, tungi klublarda yoki yomon yo`llarga kirishga asos bo`ladigan joylarda o`tmoqda. Bu bizning eng katta kamchilik va mag`lubiyatimiz, sababi bekorchilik ketidan yoki vaqtini bekorchi joylarda o`tkazish vaqtida yoshlarda fikirlashida, dunyoqarashida ma`naviy bo`shliqlarni yomon g`oyalar, buzg`unchi fikirlar, jamiyatni buzishga qaratilgan yod g`oyalar kirib ularning dunyoqarashini o`zgartirib yubormoqda. Yoki bo`lmasa



g`arb mafkuralari, g`arb fikirlashi, g`arb odatlari kirib kelmoqda. Yoshlar orasida talantli yoshlarni yomon yo`lga kirib ketmasligi, ularning davlati ravnaqi uchun vatanparvarlik hissi bilan o`z yurti ravnaqi uchun kurashadigan bo`lishi uchun har bir yoshni bolaligidan ishlash, ularning qiziqishlari bilan shug`ullanish albatta ularning sog`lom fikir va dunyoqarash bilan o`shida yordam beradi. Bunda oila, maktab, mahlla hamkorligini kengaytirish yoshlar uchun har tomonlama imkoniyat beradi va asosiysi davlatimiz ravnaqi varivoji uchun yetuk va malakali yoshlar bo`lib yetishadi.

Kalit so`zlar: Yoshlar ishlari agentligi, mahalla, yoshlar yetakchisi, Yoshlar parlamenti, iqtidorli yosh, Yoshlar daftari, yoshlar balansi, yoshlar siyosati,

Har qanday davlatning rivoji uning bilimli, zukko, iqtidorli yoshlar jamiyati bilan ham chambarchas bog`liq ekan, avvalo ana shunday iqtidor egalarining iqtidorini yuzaga chiqarish, ularning yangi yaratuvchanlik g`oyalarini qo`llab-quvvatlash, ona vataniga sadoqat ruhida kamol topishiga imkon yaratish barcha davlatlarning bosh siyosatidir.

Prezidentimizning hokimiyat tepasiga kelgan kunlaridan boshlab yoshlar siyosatiga e`tibor berishlari dastlabki kunlardan bilindiki, “Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida”gi qonunni imzolashlarining o`ziyoq davlatimizda yoshlarga bo`lgan e`tibor va yoshlar siyosati masalasi eng yuqori pog`onada ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Mavzuning ahamiyati ham shundaki, iqtidorli yoshlarning individual tipologik xususiyatlariga ham psixologik, ham pedagogik ahamiyat qaratilganidir. Maqolada ham iqtidorli yoshlarning tipologik xususiyatlari psixologik amaliyot bilan bog`lab ifodalangan. Tadqiqot davomida iqtidorning turlariga va uni rivojlantiruvchi tavsiyalarga urg`u beriladi. Hozirgi kunda yoshlarga bo`lgan e`tibor nafaqat yurtimizda, balki jahon davlatlari miqyosida ham qiziqish, talab kuchli, chunki yoshlar endi o`sib kelayotgan nihol. ularni qay yo`sinda tarbiyalasang qanday bog`bonlik qilib parvarishlab o`stirsang shunday katta bo`ladi va shunday mevasini



ko‘ramiz. Yoshlarda mavjud bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliq, ularni egallash uchun kurash butun hamjamiyat o‘z g‘oyalari, mafkuralarini singdirish uchun axborot kurashi, mafkuraviy kurash, ma‘naviy-ma‘rifiy kurash avjiga chiqqan. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar soni (30 yoshgacha) 10 mln ga yaqin, bu yoshlarning ulushi 57 % ni tashkil qiladi.

Yurtimizda yoshlar manfaatini himoya qiladigan tashkilot mavjud. Bu tashkilot muhtaram prezidentimiz tomonlaridan 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekistonda Yoshlar ishlari agentligi faolyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi 4768- son qarorlari orqali Yoshlar ishlari agentligi tashkiloti tuzildi va hozirgi kunga qadar yoshlar uchun hamda ularning manfaatlari uchun ishlab kelmoqda.

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasidagi yosh rahbar kadrlarning o‘rnini belgilash va ularni turli mas‘uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bunga misol tariqasida Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-son qarorlari asosida respublika hududidagi 9400 ta mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi va bu bilan ushbu lavozim egalariga keng imkoniyatlar yaratib berilib mahalladagi yoshlar mafaatini himoya qilinishi belgilangan bo‘lsa, ikkinchi tarafdin yoshlar yetakchilari yaxshi ish faolyatini ko‘rsata olsa ular rahbar lavozimlariga ko‘tarilishiga imokn berildi va uchinchidan yoshlar yetakchilari lavozimi oraqali 9400 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bu kabi yangi mexanizm natijasida davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalar zamonaviy hamda kreativ fikrlaydigan, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, ‘ayrat-shijoatli yosh kadrlarga ishonib topshirilmoqda. Yoshlar yetakchisi va unga hamkor tashkilotlar bilan aloqani kengaytirish. Tizimli ishlarni tashkil qilish va yoshlar bilan pastga qadar tushib, harbir yoshlar bilan muloqotni kengaytirish. Mahallalardagi iqtidorli va istedodli yoshlarni aniqlash, yuzaga chiqarish va biror



yo‘nalishda qiziqishi bor lekin imkoniyati yetishmaydigan yoshlar bilan alohida ishlash.

Ayni muhim o‘zgarishlarni davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “sotsial lift” tushunchasi qog‘ozda emas, amaliy ko‘rsatib berayotganidan dalolatdir. Prezidentimiz tashabbusi va amaliy ko‘magi tufayli mamlakatimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. O‘g‘il-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishiga aylanib, bu yo‘lda ulkan ishlar bajarilmoqda. Ana shu g‘amxo‘rlik va e’tibordan ruhlanib, yoshlarning ham, o‘z navbatida, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hisi kuchaymoqda. Zamonaviy, demokratik yangi O‘zbekiston davlatini mustahkamlashda munosib ishtirok etishga intilmoqda. So‘nggi to‘rt yil davomida yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun, davlatimiz rahbarining 7 ta farmoni, 14 ta qarori, 2 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23 ta qarori va 4 ta farmoyishi imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Hozirgi kunda bu yo‘nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palataci qoshida “Yoshlar parlament”lari faoliyat ko‘rsatmoqda. Prezidentimizning o‘tgan yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. 2018 yildan boshlab oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimi o‘rniga yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish



vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalariga yuklandi.

Yoshlar siyosati samaradorligini oshirish maqsadida 182 ta vazirlik, idora va tashkilotda yetakchilar kengashi tashkil etildi. Boshlang‘ich tashkilot yetakchisi lavozimi uchun alohida shtat birligi ajratilib, maqomiga ko‘ra rahbarning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari yoki maslahatchisi lavozimiga tenglashtirildi.

Yosh kadrlarga qaratilgan bunday e‘tibor, beqiyos g‘amxo‘rlik va yaratilayotgan shart-sharoitlar yigit-qizlar hayotida yangidan-yangi sahifalar ochilishiga zamin yaratmoqda. Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdagi o‘ziga xos psixologik salohiyatning nechog‘liq to‘la-to‘kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma‘naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan, rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma‘naviy, intellektual, jismoniy, ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e‘tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy- psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ayniqsa, aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim jarayoniga xam o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ta’lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta’lim muassasalarida ishlarni to‘g‘ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to‘g‘ri tashkil etishga xam bog‘liqdir.

Hozirda “Yoshlar daftari” elektron platformasi orqali ko‘plab yoshlarga imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bunga misol tariqasida 2022-yil 7-iyundagi “2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini



amalga oshirish dasturini tastiqlash to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining 310-son qarori bilan yoshlar siyosati masalasi yangi bosqichga kirgan bo'lsa, "Yoshlar muammolarini o'rganish va xalq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining 312-son qarori orqali qinalgan, og'ir ahvolga tushgan, imkonyati cheklangan yoshlarga yordamlar berish va bu orqali ularning ahvoli yaxshilanib sog'lom muhitga, sog'lom jamiyatga qaytish uchun imkonyatlar eshigi kengaytirilib, bu eshikka eng maqbul kalit sifatida esa mahallada yoshlar yetakchisi etib belgilanib, mahalladagi ushbu toifalardagi yoshlarga yordam berishiga keng imkonyatlar yaratib berildi. Bu esa yoshlarda davlatga bo'lgan ishonchni oshiradi va o'zi va oilasi ahvolini yaxshilash uchun maksimal darajada harakat qilishiga imkon yaratadi.

Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchyi, o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, xam ma'naviy, xam aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'lim-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoattashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek



ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:

- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

-yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologikpedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifani belgilab olamiz:

iqtidorli o'quvchilarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy–uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.

intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.

- yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish.

- yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish.

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish.

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;

- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- ta'lim menejmenti sohasida innavatsion takliflarni o'rganish va ularni ta'lim tizimiga tadbiq etish;

-bo'lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko'maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o'rganish va me'riy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari "yoshlar" yoki "yoshlik" tushunchasi har qanday jamiyatga xos bo'lgan va ma'lum demografik davrlarni qamrab olgan o'ziga xos tushuncha. Hozirgi davr tadqiqotchilari axborotlar jamiyati hisoblangan yangi asrda yoshlarning hamma soha va tarmoqlarda rivojlanib ketganligini inkor etmagan holda, 10 mavjud taraqqiyot



o'ziga xos ravishda sosial, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va tabiiyki, ma'naviy muammolarni ham yuzaga keltirayotganligini e'tirof etadilar. O'zbekistonda yoshlarning har tomonlama mukammal bilim olishi, kamol topishi yo'lida keng qamrovli ishlar olib borilayotgan ekan, tabiiyki, bu jabhada bevosita yoshlarning ishtiroki, ularning bo'sh vaqtlarini qay darajada unumli o'tkazayotganligi to'g'risida tadqiqotlar olib borish dolzarb masalardan biri sanaladi. Inkor etishning hojati yo'q, tadqiq etilishi taklif etilayotgan muammo yuzasidan atroflicha ilmiy izlanishlar o'tkazilgan. Uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ularni vaqtinchalik ishlarga yoki qo'shimcha kasb o'rgatuvchi to'garaklarga jalb etish katta samara beradi. Bu jarayonda turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan ijtimoiy loyihalar yoki xizmatlarning o'rni beqiyos bo'lishi turgan gap.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Me'yoriy-huquqiy xujjatalar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son" "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun
2. "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 92-son qarorlari(01.19.2022)
3. 2022-2023-yillarda "o'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 310-son qarori (07.06.2022)
4. "Yoshlar Muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 312-Son Qarori (07.06. 2022)
5. 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qarorlariga muvofiq Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan yoshlar bilan "Yoshlar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni har tomonlama qo'llab-



quvvatlash, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida intellektual sog'lom raqobatni shakllantirish, talaba va yoshlarning bilim va salohiyatini yanada oshirish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" O'zbekiston " Toshkent 2012 yil Universiteti.

7. O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Senati. "Odamlar yonmoqda" gazetasi. 2010 Yel Universiteti Noyabr

8. I. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot Yuliyasi. - T. O'zbekiston, 2007.

9. Sh.M. Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 – 53 b.

10. Sh.M. Mirziyoev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. – 102 b. 3.

III. Asosiy adabiyotlar:

12. Pavlovskiy V.V. Yuventologiya: proekt integrativnoy nauki o molodeji. M., 2001.

13. Sosiologiya molodeji: Uchebnik/ Pod. Red. prof. V.T. Lisovskogo. SPb: Izd-vo S-P.u-ta, 1996.

14. Oripov. Sh. Yoshlar siyosati — barqaror taraqqiyot kafolati. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.

IV. Internet manbaalari

16. <http://yoshlar.gov.uz/uz/> - Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti

17. <https://yoshlarportali.uz/uz/> - Yoshlar partali elektron platformasi sayti

18. <https://yoshlardaftari.uz/> - Yoshlar daftari electron platformasi sayti